# O'QUV JARAYONIDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISHNING AN'ANAVIY VA INNOVATSION METODLARI

**Jontay-Aminova Dilfuza Zafar qizi**
**Mingturayeva Sevinch**
**Eshboboyeva E'zoza**
**Boysunova Gulsanam**
*DTPI Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi*
*Email:* dilfuza05011@gmail.com
*Ilmiy maslahatchi:*
**Baxromova Shohsaanam Ibodullayevna**
DTPI Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur mavzu xalq og'zaki ijodining o'quv jarayonida tutgan o'rni va ahamiyatini chuqur tahlil etishga qaratilgan. Xalq og'zaki ijodi – xalqning tarixiy, madaniy va ma'naviy merosini o'zida aks ettirgan bebaho boylik bo'lib, uni ta'limda qo'llash o'quvchilarning estetik didini shakllantirish, og'zaki nutqini rivojlantirish va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. An'anaviy metodlar qatorida ertaklar, maqollar, afsonalar, dostonlardan dars jarayonida foydalanish, ularni o'quv materialiga bog'lab tushuntirish, og'zaki ijod namunalari asosida muloqotli topshiriqlar tashkil etish usullari ko'rib chiqiladi**.**

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, an'anaviy metodlar, innovatsion metodlar, o'quv jarayoni, ertak, maqol, afsona doston.

**Abstract:** This topic is aimed at a deep analysis of the role and significance of folk oral art in the educational process. Folk oral art is an invaluable wealth that reflects the historical, cultural and spiritual heritage of the people, and its use in education is an important factor in forming the aesthetic taste of students, developing oral speech and educating them in the spirit of respect for national values. Among the traditional methods, the use of fairy tales, proverbs, legends, epics in the lesson process, their explanation in connection with

educational material, and the organization of communicative tasks based on examples of oral art are considered.

**Key words:** oral folklore, traditional methods, innovative methods, learning process, fairy tale, proverb, legend, epic.

Аннотатсия: Данная тема направлена на глубокий анализ роли и значения народного устного творчества в образовательном процессе. Фольклор является бесценным сокровищем, отражающим историческое, культурное и духовное наследие народа, и его использование в образовании является важным фактором формирования эстетического вкуса учащихся, развития устной речи, воспитания их в духе уважения к национальным ценностям. Среди традиционных методов рассматриваются приемы использования в урочном процессе сказок, пословиц, легенд, былин, их пояснения путем привязки к учебному материалу, организации коммуникативных заданий на примерах устного творчества.

**Ключевъе слова:** устное народное творчество, традиционные методы, инновационные методы, процесс обучения, сказка, пословица, легенда, эпос.

**Kirish**: Xalq og‘zaki ijodi har bir millatning ma’naviy-axloqiy merosini aks ettiruvchi bebaho xazina bo‘lib, uning ta’lim jarayonida qo‘llanilishi yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ertaklar, dostonlar, maqollar va afsonalar kabi janrlar orqali o‘quvchilarda estetik did, nutq madaniyati, milliy ong va qadriyatlarga hurmat shakllanadi. An’anaviy metodlar bilan bir qatorda, bugungi kunda ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlar, ya’ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, interfaol metodlar asosida dars tashkil etish, raqamli platformalarda xalq og‘zaki ijodi namunalarini talqin qilish keng ommalashmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining asosiy hujjatlarida – “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun[5[, Milliy dastur va so‘nggi yillarda qabul qilingan konsepsiyalarda yosh avlodning milliy o‘zlikni anglashiga xizmat qiluvchi vositalar sifatida xalq ijodiyoti namunalaridan foydalanish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.[6] Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning an’anaviy va innovatsion

metodlarini o‘rganish va amaliyotga joriy etish bugungi ta’lim jarayonining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

**Asosiy qism:** Xalq og‘zaki ijodi – bu avloddan-avlodga og‘zaki ravishda o‘tib kelayotgan, xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, axloqiy qarashlari, estetik didi va dunyoqarashini ifodalovchi boy madaniy merosdir.[1] O‘zbek xalq og‘zaki ijodining asosiy janrlari – ertaklar, rivoyatlar, afsonalar, maqollar, topishmoqlar va dostonlardir. Bu janrlar yosh avlodni tarbiyalashda, ularning nutq madaniyati, axloqiy qarashlari, tafakkuri va estetik didini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.[3] Ta’limda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishda uzoq yillardan beri qo‘llanilayotgan metodlar mavjud bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Ertak va afsonalardan foydalanish – dars jarayonida ertaklarni o‘qish, uni tahlil qilish, personajlar xarakterini ochib berish orqali o‘quvchilarda yaxshi-yomonni ajratish, xayoliy fikrlash va xulosa chiqarish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Innovatsion metodlar: zamonaviy yondashuvlar asosida xalq ijodidan foydalanish

Bugungi ta’lim tizimida yangicha, innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Xalq og‘zaki ijodidan foydalanishda quyidagi innovatsion metodlar keng qo‘llanilmoqda:

AKT (Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) – raqamli dars ishlanmalari, animatsion ertaklar, onlayn platformalardan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Xalq og‘zaki ijodidan foydalanish bo‘yicha qator maktablarda quyidagi amaliy mashg‘ulotlar samaradorligini ko‘rsatdi:

5-sinf o‘zbek tili darsida ertak asosida “Sifat” mavzusini o‘rganishda ertak qahramonlarini ta’riflash orqali sifat toifasi mustahkamlandi.

7-sinf adabiyot darsida “Alpomish” dostonini tahlil qilish orqali qahramonlik, vatanparvarlik tushunchalari yoritildi.

Maqollar asosida interfaol “To‘g‘risini top” o‘yini tashkil etilib, nutq faolligi oshirildi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilov N. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Fan, 2008

2. Yo‘ldoshev M. Folklor va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997.

3. Juraqulov A. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004

4. Axmedova S. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

5. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni -yil, yangi tahrir.

6. O‘zbekiston Respublikasi “Milliy ta’lim dasturi” – rasmiy nashr, 2021.

## Internet resurslar

7. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va rasmiy hujjatlari.

8. www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti.

9. ziyonet.uz – Ta’lim resurslari va metodik materiallar portali.

10. www.pedagoglar.uz – O‘qituvchilar uchun metodik yordamchi platforma.

11. elib.buxdu.uz – BuxDU elektron kutubxonasi, ilmiy-ommabop adabiyotlar.